XALQ DEPUTATLARI MIROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-fevral III-6-33-14-199-K/25 Mirobod tumani

Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-4-030-14-199-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi, jadvalning 6-ustuni xatboshisiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda Mirobod tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 20-yanvardagi 14-01466-sonli murojaat xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-4-030-14-199-K/24-sonli qaroridagi texnik xatolikni to‘g‘rilash maqsadida, Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashi,

QA R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-4-030-14-199-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi, jadvalning 6-ustuni xatboshisiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi Mirobod tuman soliq inspeksiyasining taklifi jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun 15 kun muddatga “E-Kengash” elektron tizimiga joylashtirilib, ID-105645-sonli loyiha regulation.gov.uz saytida e’lon qilinganligi;

muhokama yakunlari bilan jamoatchilik tomonidan takliflar kelib tushmaganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-4-030-14-199-K/24-sonli qarorining 2-ilovasidagi jadvalning 6-ustuni xatboshisidagi “1 gektar uchun yer solig‘i” so’zlari “1 kv.m. uchun yer solig‘i” so’zlariga almashtirilsin.

3. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-4-030-14-199-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi o‘zgartirilgan tahrirda qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Mirobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Salaydinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



SAYFUTDINOV ANVAR NAZAROVICH